



## MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHIYATINING SHAKLLANISHI VA UNING O'ZGARISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

**Qudratov Zafar G'aybullayevich**

Sirdaryo biznes va texnologiyalar  
universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11066878>

**Annotatsiya.** Iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasini takomillashtirishda innovatsion salohiyat muhim o'rin tutishini hisobga olgan holda, mazkur ilmiy tezisda innovatsion salohiyat omillari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, innovatsiya, salohiyat, innovatsion tizim, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish darajasini mamlakatda innovatsion salohiyat oshishiga ta'sir qiluvchi omillar belgilab beradi. Omil deganda, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanish sur'ati va xarakteriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar tushuniladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, innovatsion jarayon unga bog'liq bo'lgan bir qator omillarning o'zaro ta'siri natijasi hisoblanadi. Innovatsion salohiyatini ob'yektiv ravishda, har tomonlama tadqiq qilish jarayonida unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va tasniflash muammosi vujudga keladi.

Mamlakatda innovatsion salohiyatning shakllanishi va amalga oshirilishi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalaridan boshlab, ijtimoiy ishlab chiqarish yoki innovatsion texnologiyalarni qo'llashni o'z ichiga oluvchi, innovatsion jarayonlarni jadallashtiruvchi omil va shart-sharoitlar majmuasiga bog'liqdir. Innovatsion salohiyatni oshirishni rag'batlantiruvchi yoki sekinlashtiruvchi omillar global, makro, mezo va mikro darajalarda ta'sir ko'rsatadi.

*Global darajada* ta'sir qiluvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bilimlarning samarali transferi, xalqaro miqyosda tajribalar almashinuvi, innovatsiyalar keng tarqalishiga yordam beruvchi loyihalarni amalga oshirish jarayonlari va shu kabilar;

- yaratilayotgan innovatsiyalarning tegishli sohalardagi texnologik jarayonlar bilan integratsiyalashuv qobiliyati mavjudligi.

*Makro va mezo darajadagi* omillar innovatsion loyihalarni amalga oshirish samaradorligini belgilab beradi. Davlat va hududiy boshqaruv organlarining asosiy vazifasi innovatsion sohaga investitsiyalar oqimi uchun qulay iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sharoitlar yaratishdir. Makro darajadagi



innovatsion faoliyatning rivojlanishi hududiy iqtisodiyot hamda butun mamlakat iqtisodiyotining o'sish nuqtasini shakllantiruvchi samarali hududiy tizimlarning rivojlanishi orqali sodir bo'ladi.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotda innovatsion faoliyat rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud bo'lib, ular texnologik ishlanmalar va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning past darajasi, yosh olimlarning moddiy va moliyaviy jihatdan yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligi hamda innovatsion ob'ektlarning yetarli axborot bilan ta'minlamayotganligida o'z aksini topadi.

F.Shokirovaning fikricha, milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni ikkita guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin:

- innovatsion salohiyatning sifat tarkibini belgilab beruvchi transformatsion omillar;
- milliy iqtisodiyotning innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishga tayyorgarligini ko'rsatuvchi va innovatsion salohiyat mavjudligi hamda uni realizatsiya qilishni belgilab beruvchi chegaralarni ifodalovchi transaksion omillar.

*Transformatsion omillarga* milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar, ya'ni, kadrlar masalasi, ilmiy, texnik-texnologik va moliyaviy cheklanishlarni kiritish mumkin. Ya'ni, yuqori iqtisodiy tavakkalchilik, pul mablag'lari tanqisligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, innovatsiyalarni ishlab chiqish va bozorga kiritish qiymatining yuqoriligi, moddiy va ilmiy-texnik bazaning sustligi hamda uning eskirganlik darajasining yuqoriligi innovatsion salohiyatga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan sanaladi.

*Transaksion omillar* deganda, innovatsion salohiyatga salbiy ta'sir qiluvchi axborot, tashkiliy, institutsional cheklovlar tushuniladi. Ularga davlat va tadbirkorlik sektori o'rtasida ishonchli, samarali o'zaro ta'sir mexanizmlari hamda innovatsion madaniyatning mavjud emasligi, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi me'yoriy-huquqiy bazaning nomukammalligi, mamlakatda innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari, subsidiya va boshqa preferensiyalarning yo'qligi, yangi texnologiyalar, sotuv bozorlari haqidagi axborotning yetishmasligi, innovatsion tizimda ilmiy, ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyasi samaradorligining pastligini kiritish mumkin.

Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini shakllantirish va amalga oshirishga salbiy ta'sir qiluvchi omillar ichidan N.Rasulov iqtisodiy, ishlab chiqarish va tashkiliy omillarni ajratib ko'rsatadi. Muallif salbiy xarakterga ega



bo'lgan iqtisodiy omillar tarkibiga ishlab chiqaruvchining o'z mablag'lari yetishmasligi, davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashmaganligi, yuqori innovatsiyalarga nisbatan talab yo'qligi, innovatsion loyihalarning qoplanish muddati uzoqligi va shu kabilarni kiritadi.

Mamlakatda innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazaning nomukammalligi, innovatsion infratuzilma ob'ektlari samaradorligining pastligi, innovatsion jarayonlar muddatining mavhumligi hamda texnologiyalar bozorining rivojlanmaganligini milliy iqtisodiyot innovatsion salohiyatini rivojlanishiga u yoki bu darajada salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy omillar qatoriga kiritish mumkin.

R.Nurimbetov innovatsion salohiyatni belgilab beruvchi omillar qatoriga innovatsiyalarni tatbiq etishga davlat va xususiy sektorning tayyorgarligi, tadqiqot yo'nalishlari, jamiyatning innovatsiyalar va innovatsion an'analarni qabul qila olish qobiliyatini kiritadi. Sh.Zaynutdinov omillarni ichki va tashqi guruhga ajratadi. Hududiy miqyosda ushbu omillar hududlar ixtisoslashuvi, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi mutanosiblik va shu kabilar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

B.Kamiljanov milliy iqtisodiyotda innovatsion salohiyatning ko'lami, o'zgarish sur'atlari va uning ichki tarkibini belgilab beruvchi bir qator omillarni ajratib ko'rsatadi:

- ichki va tashqi bozorda mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida uni yangilash hamda texnik-eksplutatsion darajasini oshirish;
- xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik sur'atlarini jadallashtirish va shu orqali Jahon bozoriga chiqish;
- ilmiy tadqiqotlar va texnik ishlanmalar natijalarini tez o'zlashtirish va ommaviy tarqatish;
- tarkibiga ilmiy va muxandis-texnik xodimlar kiruvchi kadrlar salohiyatini saqlab qolish hamda innovatsion faoliyat bilan kam bog'langan sohalarga yuqori malakali kadrlarning o'tishiga yo'l qo'ymaslik.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirishda institutsional omillarning ahamiyati juda katta ekanligi o'z isbotini topdi. Shuning uchun ham institutsional-huquqiy shart-sharoitlarni takomillashtirmasdan turib, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilishning iloji yo'qligi ko'pchilikka ma'lum haqiqatdir. Mavjud institutlarni rivojlantirish bilan birga zamonaviy talablarga javob beradigan yangi institutlarni yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.



Milliy iqtisodiyot innovatsion salohiyatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni tez va sekin ta'sir qiluvchi omillarga ajratish mumkin. Chunki iqtisodiyotning globalizatsiya sharoitida ko'pgina omillarni boshqa hududlardan ko'chirib olib kelish mumkin. Masalan, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-texnologik va axborot resurslarini boshqa davlatdan yoki hududdan import qilish imkoniyati mavjud. Moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida innovatsion salohiyat omillarining tezligini oshirishga imkon yaratuvchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mumkin.

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyot innovatsion salohiyatining oshishiga ta'sir qiluvchi omillarni tavsifiy jihatdan ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

- milliy iqtisodiyot innovatsion salohiyatining rivojlanishiga ko'maklashuvchi omillar;

- milliy iqtisodiyot innovatsion salohiyatining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar.

Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirishning institutsional omillarini ularning miqyosidan kelib chiqqan holda quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish ham maqsadga muvofiq:

- mamlakat miqyosida amalga qiladigan, innovatsion faoliyat natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va qonun doirasida harakat qiladigan makrodarajagi institutlar;

hududlar miqyosida amalga qiladigan, xarakat mexanizmlari innovatsiyalarni yaratishni tezlashtirishga yordam beradigan, rasmiy va norasmiy tarzda faoliyat yuritadigan mikrodarajagi institutlar

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyotini takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi avtoreferati. - T.: TDIU, 2021. – 62 b.
2. Nurimbetov R. Innovatsion salohiyat – zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish poydevori. BIZNES-EKSPERT. 2017. №5. 46-56 b.
3. Zaynutdinov Sh.N. Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2011. № 1.
4. Kamiljanov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. Monografiya. - T.: Fan. 2007. - 162 b.
5. Шакирова Ф. Б. и др. Инновацион ривожланиш моделлари ва уларнинг иқтисодий ўсиш билан алоқадорлиги //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 1. – С. 101-105.



6. Abduvoxidov A., Kamilova S. INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 5-14.

